UDK 37.015.3

O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMATNING BUGUNGI HOLATI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor

Hozirgi globallashuv sharoitida amaliy psixologiyaning shiddat bilan rivojlanishi jarayonida psixologik xizmat zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda psixologik xizmatni rivojlantirish borasida mustaqillikdan so‘ng muayyan vazifalar bajarilgan bo‘lsa-da, so‘nggi ikki-uch yilda soha taraqqiyoti uchun misli ko‘rilmagan darajada ishlar amalga oshirildi, deyish mumkin.

Psixologik xizmat ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda katta ahamiyat kasb etadigan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, inson, shaxs salomatligini, tarbiyalanuvchi, o‘quvchilarning har tomonlama, komil inson sifatida rivojlanishini, ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarning maqsadga muvofiqligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi va sa’y-harakatlari natijasida nisbatan qisqa vaqt ichida ta’lim psixologik xizmatini amalga oshiruvchi mutaxassis – psixolog ommaviy va nufuzli kasblardan biriga aylanmoqda. Psixolog – ayni kunda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda, yosh avlodning aqliy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan yangi kasbiy faoliyat turlaridan hisoblanadi va davr hozirgi kunda psixologlar oldiga amalga oshirilishi zarur bo‘lgan qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ham mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan soha mas’ullari va mutaxassislar oldida hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Mazkur vazifalarning bajarilishi esa turli soha va yo‘nalishlar doirasida psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog‘liq ekanligi shubhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga

psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida vatanimiz va xorij olimlari o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Ta’lim psixologik xizmati – mamlakat ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Bola, o‘quvchi, talaba shaxsini rivojlantirishga nisbatan yondashuv ta’lim psixologik xizmatining quyidagi yo‘nalishlarini belgilab beradi:

har bir yoshdagi bola bilan uning imkoniyatlari, salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida ishlarni amalga oshirish;

bolaning o‘ziga xos, individual xususiyatlari – qiziqishlari, qobiliyati, ijodiy moyilligi va intilishlari, his-tuyg‘usi, munosabatlari, hayotiy rejalari va hokazolarni rivojlantirish;

bola, o‘quvchi maqsadga muvofiq rivojlanishi uchun (bog‘cha, internat, maktabda) qulay psixologik muhit, iqlimni yaratish, bunda bir tomondan bolaning o‘z tengdoshlari va yoshi kattalar bilan samarali muloqotini ta’minlash, ikkinchi tomondan bolaning ontogenez (hayoti davomida)dagi rivojlanish bosqichlarida uning uchun ahamiyatga ega faoliyat turlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vaziyatlarini namoyon qilib borish;

nafaqat bolalar, balki ularning ota-onasi, tarbiyachilari va o‘qituvchilarini ham o‘z vaqtida psixologik qo‘llab-quvvatlash va ularga psixologik yordam ko‘rsatish.

Ta’kidlanganidek, ta’lim psixologik xizmati – davlat ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekan, uning maqsadi – maktabgacha ta’lim va xalq ta’limi tizimidagi tarbiyalanuvchilar, o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta’minlash, asosiy vazifasi – barcha yosh davrlaridagi tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning psixik, psixofiziologik va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, ko‘maklashish. Bunda har bir yosh davridagi bolaning imkoniyatlarini risoladagidek namoyon qilish uchun maqbul psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ma’lum darajada psixologlar har bir bolaning to‘laqonli psixik va shaxsiy rivojlanishi uchun kafol bo‘luvchi, o‘ziga xosligini qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassislar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Pedagogik amaliyotda (nafaqat pedagogik, balki hayotning boshqa jabhalarida ham) psixolog mutaxassislarga nisbatan talab, ehtiyojning oshib borishi, ular kasbiy faoliyati qamrovining kengayishi psixologlar va umuman, psixologik xizmatga doir metodik, tashkiliy-boshqaruv mazmunidagi masalalar, muammolarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Shunday ekan, tan olish kerakki, ayni vaqtda hali to‘liq shakllanib ulgurmagan, mamlakat-hududlar-tumanlar-ta’lim muassasalari miqyosida vertikal darajada ishi maqsadga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yilmagan, uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ta’lim psixologik xizmatining kelgusi rivoji uchun ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish, faoliyatining barcha jihatlarini tartibga keltirish borasida mutasaddilar, olimlar, mutaxassislar oldida bajarilishi lozim bo‘lgan ko‘p vazifalar

turibdi. Mazkur vazifalar sirasiga psixologik xizmat tizimining yaxlitligi, bir butunligini ta’minlash ham kiradiki, bu barcha darajalarda quyidagilarni nazarda tutadi:

psixologik xizmat faoliyati maqsadi, vazifalari va mohiyatini aniq va bir xil tushunish;

faoliyat mazmunidan kelib chiqib, maqsadlarni amalga oshirishni huquqiy va moliyaviy jihatdan ta’minlash;

mahalliy davlat organlari, tegishli bo‘linmalar va tashkilot hamda muassasalarning o‘zaro aloqasini yo‘lga qo‘yish.

Psixologik xizmat yaxlit tizimi faoliyati samaradorligiga kafolat – har bir bo‘g‘in, bo‘linma o‘zining konkret vazifalarini izchil, aniq bajarib borishlari.

Mamlakatimizda psixologik xizmat samaradorligini alohida o‘rganish, ta’lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish borasida ayrim nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan, muayyan adabiyotlar nashr etilgan bo‘lsa-da, maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmatga bag‘ishlangan alohida qo‘llanma, risolalar hali yetarli darajada chop qilinmaganligini, bu borada hali ehtiyoj mavjudligini ta’kidlash joiz.

O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holati va asosiy yo‘nalishlari xususida so‘z yuritilganda, psixologik xizmat – ijtimoiy-psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, mamlakatimizda mazkur xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o‘rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko‘lamiga ma’lum tartibda baho bermay turib, O‘zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. https://lex.uz/en/docs/7196808.

2. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat asoslari. – T., 1999.

3. Shoumarov G‘.B., Qodirov U.D. Maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmat (uslubiy qo‘llanma). – Termiz, 2022.